



## AMERIKA QO'SHMA SHTATLARI TARAQQIYOTIGA HISSA QO'SHGAN PREZIDENTLAR

*Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti talabasi*

**Ochilxonova Husnoraxon**

*E-mail: @ JamikKhan*

**Ilmiy nazoratchi: Botirova Hakima**

*Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti o'qituvchisi*

**Anotatsiya:** Amerika Qo'shma Shtatlar prezidenti- AQSh konstitutsiyasiga muvofiq, AQSh davlat va ijroi hukumat boshlig'i hamda AQSh armiyasi va floti bosh qo'mondonidir. AQSh prezidentligiga saylov kuniga qadar 35 yoshdan kichik bo'limgan,kamida 14 yil AQShda yashagan fuqarolar saylanishi mumkin.Shuningdek ushbu fuqaro AQShda tug'ilgan bo'lishi shart. Chunki har bir prezident davlat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shmog'i uchun bu omillar juda muhim. AQSh Prezidenti vakolati muddati 4 yil bo'lib, bir kishi ikki martadan ortiq ushbu lavozimga saylanishi ta'qilanganadi.

**Kalit so'zlar:** AQSh, prezident, taraqqiyot, tarix, prezidentlik muddati, SSSR, partiya, saylov.

**Аннотация:** Президент Соединенных Штатов Америки, согласно Конституции Соединенных Штатов, является главой государства и исполнительной власти Соединенных Штатов, а также главнокомандующим армией и военно-морским флотом Соединенных Штатов. Президентом США могут быть избраны граждане не моложе 35 лет, прожившие в США не менее 14 лет до дня выборов. Также этот гражданин должен был родиться в США. Потому что эти факторы очень важны для каждого президента, чтобы он способствовал развитию страны. Срок полномочий президента США составляет 4 года, и один человек не может быть избран на эту должность более двух раз.

**Ключевые слова:** США, президент, развитие, история, президентский срок, СССР, партия, выборы.

**Annotation:** The President of the United States of America is, according to the Constitution of the United States, the head of state and executive government of the United States and the commander-in-chief of the United States Army and Navy. Citizens who are not younger than 35 years old and have lived in the US for at least 14 years before the election day can be elected to the presidency of the USA. Also, this citizen must have been born in the United States. Because these factors are very important for each president to contribute to the development of the country. The term of office of the President of the USA is 4 years, and one person cannot be elected to this position more than twice.



**Keywords:** USA, president, development, history, presidential term, USSR, party, election

## AMERIKA QO'SHMA SHTATLARI TARAQQIYOTIGA HISSA QO'SHGAN PREZIDENTLAR

Amerika Qo'shma Shtatlari Prezidenti AQSh kongressi tomonidan qabul qilingan qonun loyihalariga vetolar kiritishga haqli. Ushbu mansab AQSh Konstitutsiyasiga 1787-yil, ya'ni Konstitutsiya qabul qilingan yil kiritilgan. Birinchi AQSh prezidenti 1789-yil George Washington bo'ldi. Hozirga qadar 45 ta prezident saylangan. Joe Biden 2021-yil 20-yanvardan ushbu lavozimga 46- prezident bo'lib rasman kirishdi.

Ushbu ko'plab prezidentlar orasida AQSh taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shgan va tarixda eng yorqin va mashhur siymo bo'lib qolganlari ozchilikni tashkil etdi.

Jorj Washington, AQShning birinchi prezidenti (1789 - 1797). Washington 1789 yilda ushbu lavozimni egallagan. U saylovchilarining 100 foiz ovozini to'plashga muvaffaq bo'lgan yagona prezidentdir. AQShda uni "yurt otasi" deyishadi. Washington Amerika davlati va prezidentlar institutiga ilk poydevorlarni qo'ygan hamda ularning keyingi taraqqiyotini belgilab bergan. Washington tomonidan bunyod etilgan mamlakat poytaxti bekorga uning nomi bilan yuritilmaydi. Bundan tashqari, shtat, ko'l, orol, tog', ko'plab aholi punktlari, kollej va institutlar, ko'chalar va maydonlarga uning nomi berilgan, uning surati esa dollar kupyurasini bezab turadi.

Avraam Linkoln, AQShning o'n oltinchi prezidenti (1861-1865). Respublikachilar partiyasining ilk prezidenti. U qullarni ozod qilganligi hamda Amerika milliy qahramoni bo'lganligi bilan tanilgan. Uning boshqaruvi davrida transkontental temir yo'l qurilgan.

U ittifoqdoshlarini ilhomlantirishning uddasidan chiquvchi bebafo notiq hisoblangan. Linkoln qat'iy axloqiy tamoyillarga asoslangan, shu bilan birga o'z o'rniда hazil qilishni ham bilgan.

1865 yilning 14 aprelida teatrda Linkolnning joniga qasd qilingan va u suiqasd uyushtirilgan birinchi prezident bo'lgan. Shundan so'ng amerikaliklar qullarni ozod qilgan buyuk inson sharafiga ulkan haykal barpo qilishgan. Linkoln bugungi kunga qadar amerikaliklarning eng sevimli prezidentlaridan biri hisoblanadi.

Linkolnning sharafiga ko'plab haykallar bunyod etilgan, shahar, ko'chalar, universitet, turli markazlar, nufuzli avtomobillar markasi, aviatashuvchi - bularning barchasi Linkoln nomi bilan yuritiladi. Shuningdek 5 dollarlik kupyurada uning surati muhrlangan.

Tomas Vudro Vilson, AQShning yigirma sakkizinch prezidenti (1913 - 1921). U bugungi kunga qadar mamlakatdagi monopoliyaga qarshi faoliyatni nazorat qiluvchi AQSh Federal rezerv qonunini qabul qilganligi bilan tarixda qolgan.



Amerika Birinchi jahon urushiga qo'shilganidan keyin esa Vilson "Yevropada tinchlik o'rnatganligi uchun" Nobel mukofotini olgan.

Ikkinci prezidentlik muddati oxirida prezident falaj kasalligiga yo'liqadi va mamlakatdagi barcha muhim qarorlarni birinchi raqamli xonim hamda Shtatlar rahbarining maslahatchilari qabul qilishadi.

Vilsonning suratini mamlakatdagi eng yirik - 100 ming dollarlik kupyurada ko'rish mumkin.

Franklin Ruzvelt, AQShning o'ttiz ikkinchi prezidenti (1933-1945). Ruzvelt - AQShning ikki muddatdan ortiq vaqtga saylangan yagona prezidenti.

O'z prezidentligining ilk yuz kunida prezident Ruzvelt bir qator muhim islohotlarni qabul qilgan - bank tizimini tiklagan va och-nahor hamda ishsizlarga yordam ko'rsatish bo'yicha Federal favqulodda ma'muriyat tuzish to'g'risidagi qonunni imzolagan.

U mamlakatni global iqtisodiy inqiroz va Ikkinci jahon urushi davrida boshqargan.

Garri Trumen, AQShning o'ttiz uchinchi prezidenti (1945-1953). AQSh va sobiq SSSR o'rtasidagi "sovujurush" aynan Trumen nomi bilan bog'lanadi - u Sovet Ittifoqiga qarshi bo'lган va Amerikaning butun dunyoda yakkahokim bo'lishi g'oyasini ilgari surgan. Uning boshqaruvi davrida, 1949 yilda AQSh tashabbusi bilan NATO tuzilgan.

Trumen shuningdek Germaniyaning SSSRga hujumidan keyin aytilgan gapi bilan ham tanilgan.

"Agar Germaniya g'olib bo'lganini ko'rsak, Rossiyaga yordam berishimiz kerak, agar Rossiya g'alaba qozonsa, u holda biz Germaniyaga ko'mak beramiz. Imkon qadar ko'proq bir-birlarini o'ldiraverishsin, biroq men Gitlerni ham aslo g'oliblar safida ko'rgim yo'q", - degan o'shanda 33-prezident.

Richard Nikson, AQShning o'ttiz yettinchi prezidenti (1969-1974). Niksonning boshqaruvi davrida amerikalik astronavtlar Oyga qo'nishga muvaffaq bo'lishgan. Bu prezident - AQShning 50 shtatida bo'lishga muvaffaq bo'lgan birinchi davlat rahbari. Shuningdek u Xitoya tashrif buyurgan ilk AQSh prezidenti hisoblanadi. AQSh va XXR munosabatlari aynan shu davrda taraqqiy etgan.

Jon Kennedy, AQShning o'ttiz beshinchi prezidenti (1961-1963). Kennedy AQSh tarixidagi eng yosh prezident bo'lib qoldi. U Linkoln modeliga rioya qilib, qora tanlilarning teng huquqli bo'lishlariga harakat qilgan. Bundan tashqari, Kennedy AQSh va SSSR munosabatlarining yaxshilanishi tarafdoi bo'lgan.

O'z maoshidan tushgan barcha pul vositalarini xayriya ishlariga sarflagan.

Bugungi kunda aeroportlar va aviatashuvchilar Jon Kennedy nomi bilan yuritiladi, shuningdek uning portreti aks ettirilgan xotira tangalari, markalar chiqarilgan. Hattoki kompyuter o'yinlari va multfilmlarda ham uning obrazini uchratish mumkin.



Bill Clinton, AQShning qirq ikkinchi prezidenti (1993-2001). Bill Clinton prezidentligi davrida Amerikaning tashqi qarzlari va ishsizlik ko'rsatkichlarini ancha pasaydi, shuningdek mamlakat yuksak texnologiyalar sohasida yetakchilikni qo'lga oldi. Aynan Clintonning ma'muriyati butun dunyoda yadroviy qurolning bekor qilinishiga erishgan.

U saksofonni yaxshi chalishi bilan ham el og'ziga tushgan. AQShning barcha prezidentlari orasidan eng ko'p xorijga - safar qilgan rahbar hisoblanadi - u 133 mamlakatda bo'lgan.

### References:

1. Diyora Anorboyeva, & Khakima Botirova. (2023). The Use of Mother Tongue in English Classrooms. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 17, 100–102.
2. Botirova, Hakima. "THE IMPORTANCE OF LEXICAL TRANSFORMATIONS IN LITERARY TRANSLATION." Журнал иностранных языков и лингвистики 2.3 (2021).
3. Karimova Muxlisa Baxtiyor Qizi, Botirova Hakima. (2023). CHOOSING AND EXPLORING AUTHENTIC MATERIALS. IQRO , 3(1), 404–407.
4. Akramova Yorqinoy, & Botirova Hakima. (2023). ADAPTING LEARNING AND TEACHING MATERIALS: STRATEGIES FOR INCLUSIVE EDUCATION. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(10), 720–722.
5. Kholboyeva Aziza , Botirova Hakima, MATERIAL DESIGN WITH SPECIFIC REFERENCE TO TASKS , Новости образования: исследование в XXI веке: Том 1 № 10 (2023): Новости образования: исследование в XXI веке
6. Sobirovna, A. K., & Hakima, B. (2023). Relationship between Syllabus, Course Book and Materials. European Journal of Higher Education and Academic Advancement, 1(2), 162–164.
7. Karimova Shohida Kuvondikovna, Botirova Hakima, Designing Visual Aid , European Journal of Higher Education and Academic Advancement: Vol. 1 No. 2 (2023): European Journal of Higher Education and Academic Advancement